

# Akademik Rajabov Telman Dadayevich

Materialshunoslik fizikasi, ilmiy asbobsozlik va mikroelektron texnikasi sohasida tanilgan yirik olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Rajabov Telman Dadayevich 2020-yil 12-avgustida 85 yoshida vafot etdi.



*foto: TATU*

T.Rajabov 1935-yil 15-avgustda Samarqand shahrida tug'ilgan. Bauman nomidagi Moskva oliy texnika universitetini 1959-yilda tugatgan. 1966-yili nomzodlik, 1980-yili doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ilm-fan sohasidagi xizmatlari uchun 1995-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zosi (akademigi) etib saylandi.

Iste'dodli olim qariyb 60 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti katta ilmiy xodimi, Elektronika instituti laboratoriysi mudiri, Markaziy ilmiy asbobsozlik konstrukturlik va texnologik byurosi direktori, Toshkent elektrotexnika aloqasi instituti (hozirgi Toshkent davlat axborot texnologiyalari universiteti) rektori, Markaziy Osiyo telekommunikatsiya o'quv markazi direktori, Toshkent elektrotexnika aloqasi instituti kafedrasi mudiri va professori lavozimlarida samarali mehnat qildi, mamlakatimizda ilm-fan va ta'lim sohalarini rivojlantirish, yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashga munosib hissa qo'shgan.

T.Rajabov fizikaviy materialshunoslik va mikroelektronikaning ilmiy asbobsozlikda O'zbekiston miqyosida qo'llash ilmiy yo'nalishini asoschisi sifatida tanilgan.

Yirik olimning materialshunoslik va mikroelektronika mifikalari dunyoga tanitishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb mavzulardagi ilmiy maqolalari, tadqiqot-risola va monografiyalari yurtimiz va chet el ilmiy jamoatchiligi o'rtaida yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi.

Jonkuyar ustoz sifatida ko'plab yoshlarga saboq bergan ilm-fan fidoyisining bevosita rahbarligida o'nlab fan doktorlari va fan nomzodlari yetishib chiqdi.

T.Rajabov kamtarin va samimiyligi, talabchan, tashvishlarga befarq qarolmaydigan inson sifatida katta hurmat va e'tiborga sazovar bo'lgan.

Akademik T.Rajabovning mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi.

U “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlangan edi.

Atoqli olim, mehribon ustoz, kamtarin inson Rajabov Telman Dadayevichning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.